

# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

**2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI**

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2025 yil 7-fevral, № 27 (8922) Juma

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


## KIMYO SANOATIDA MAVJUD IMKONIYATLAR KO‘RSATIB O‘TILDI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 6-fevral kuni kimyo sanoatida 2025-yilgi rejalar muhokamasi yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.**

So‘nggi yillarda bu tarmoqda sezilarli o‘zgarish bo‘lgani, yangi texnologik zanjirlarni yaratish uchun investitsiyalarga keng yo‘l ochilgani bilan, yirik kimyo zavodlari faoliyati hali zamon talablari darajasida emasligi qayd etildi.

Shu bois tanqidiy ruhda o‘tgan yig‘ilishda sohadagi dolzarb masalalar muhokama qilindi. Davlatimiz rahbari mutasaddilarga hali ishlatilmagan imkoniyatlarni, hal etilishi lozim bo‘lgan muammolarni aniq ko‘rsatib o‘tdi.

Masalan, ilg‘or texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirib, kimyo korxonalarida qo‘shilgan qiymatni hozirgidan bir necha barobar oshirish mumkin.

Prezidentimiz bu boradagi kamchiliklarni qayd etib, yuqori texnologiyali investitsiya loyihalarini karrasiga ko‘paytirish vazifasini qo‘ydi.

Hukumatga tarmoqdagi muammolarni tezkor hal etish, mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solish va loyihalarni jadallashtirish bo‘yicha qat’iy topshiriqlar berildi.

Tarmoqdagi har bir korxonani raqamlashtirish, quvvatlardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va tannarxni kamaytirish bo‘yicha mutasaddilarga aniq vazifalar belgilandi.

**O‘zA.**

**Uchrashuv**

## MUSHTARAK MAQSADLAR YO‘LIDA

*Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasining Afg‘oniston, Markaziy Osiyo, Pokiston va Erondagi mintaqaviy vakili Oliver Shtolpe bilan uchrashuv o‘tkazdi.*

Muloqot chog‘ida O‘zbekiston va BMTning mazkur boshqarmasi o‘rtasidagi hamkorlik, uyushgan transmilliy jinoyatchilik, odam savdosi va terrorizmga qarshi kurash yangi bosqichga ko‘tarilgani ta’kidlandi. Mintaqada inson huquqlari ustuvorligini va gender tenglikni ta’minlash, munosib mehnat sharoitlarini yaratish, korrupsiya va odam savdosiga qarshi kurashishda parlamentning tutgan o‘rni atroflicha muhokama qilindi.

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi keskin kurashish choralarining qonuniy asoslari yaratilgani, bu esa xalqaro darajada e’tirof etilayotgani alohida ta’kidlandi. Jumladan, odam savdosi, majburiy mehnat va xorijda ishlayotgan muhojirlar muammolarini hal etishda mamlakat ijobiy natijalarga erishgani, O‘zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o‘rni yaxshilangani tahsinga sazovor.

Uchrashuvda tomonlar kelgusida ham ijobiy natijalarni oshirish uchun tashkilot bilan munosabatlarni mustahkamlash yuzasidan fikr almashdi. Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan keng foydalanish bo‘yicha hamkorlikni faollashtirishga kelishib olindi.

**“Xalq so‘zi”.**



## MALAYZIYA MA’RIFATI

**Uning naqadar teran ekanligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ushbu mamlakatga rasmiy tashrifi davomida yana bir bor yorqin namoyon bo‘ldi**

Ma’rifatga, ma’naviyatga asoslangan jamiyatlar mislsiz rivojlanmoqda, cheksiz yuksalmoqda, tobora taraqqiy etmoqda. Prezidentimizning Malayziyaga tashrifini diqqat bilan kuzatar ekanman, davlatimiz rahbariga ko‘rsatilayotgan yuksak ehtirom, ishonch, cheksiz mehrni ko‘rib, bunga yana bir bor amin bo‘ldim. Zero, faqat ma’rifatli mamlakatdangina bunday samimiy munosabatni kutsa bo‘ladi.

O‘zbekiston va Malayziya... Bu ikki ma’rifatli mamlakatning yakdilligi, bir-birini so‘zsiz tushunishi, qo‘llab-quvvatlashi, yaqinlashuvidan mo‘jizalar sodir bo‘lishi muqarrar. Bunga Malayziya tomoni ham, O‘zbekiston ham tayyor.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot kotibi Sherzod Asadov o‘zining “Facebook”dagi sahifasida shunday yozadi:**

*“Bir necha daqiqa oldin O‘zbekiston Prezidentining Malayziyaga so‘nggi 20 yil ichidagi ilk rasmiy tashrifi yakuniga yetdi. Diplomatik tajribam va matbuot kotibi sifatidagi faoliyatimga asoslanib aytishim mumkinki, ikki mamlakat rahbarlari o‘rtasidagi samimiy munosabat va norasmiy muloqot juda yorqin taassurot qoldirdi.*

*Ushbu go‘zal va mehmondo‘st mamlakat rahbariyati Prezidentimiz bilan samimiy uchrashuvlar o‘tkazish uchun qat’iy protokol qoidalaridan chekinib, yuksak hurmat va ishonch namoyish etganiga guvoh bo‘ldik.*

*Prezidentimizni kutib olishga Malayziya parlamenti spikeri chiqqani, malayziyalik hamkasblarimizning aytishicha, ushbu mamlakat protokol amaliyotida ilgari kuzatilmagan voqea bo‘ldi. Bundan tashqari, Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevga butun kun davomida, barcha rasmiy tadbir va uchrashuvlarda hamrohlik qildi. Hattoki, muloqotni davom ettirish uchun O‘zbekiston Prezidentiga ajratilgan qarorgohga shaxsan tashrif buyurdi…*

*Bunday norasmiy va samimiy munosabat ikki yetakchi o‘rtasidagi yaqin do‘stlikdan, O‘zbekiston va Malayziya xalqlarining bir-biriga bo‘lgan yuksak hurmati, ikki tomonlama munosabatlarning porloq istiqbolidan dalolat beradi”.*

Matbuot kotibining yozganlarini o‘qib, yuksak martabaga loyiq ko‘rilgan davlatning bir fuqarosi sifatida ko‘nglim faxr-iftixorga to‘ldi. Prezidentga ko‘rsatilgan bunday e’tibor zamirida O‘zbekistonda yuz berayotgan, ortga qaytmas islohotlardan xabardorlik, xayrixohlik tuyg‘ulari mujassamlashgan. Bu yuksak ehtirom, nafaqat Prezident Shavkat Mirziyoyevga, balki uning ortida turgan, unga ishongan butun xalqimizga ko‘rsatilgan hurmat ekaniga imonim komil.

Bugun butun dunyo eshiklari yangi O‘zbekiston me’mori bo‘lgan Prezident Shavkat Mirziyoyevga ochiq.

➔ 2





Х. ПАЙДОЕВ («Халқ сўзи») олган суратлар.

**Munosabat**

## Do‘stlik rishtalari parlamentlararo muloqot orqali yanada mustahkamlanadi

*Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohimning taklifiga binoan 4-5-fevral kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi. Tashrif doirasida bir qator muhim kelishuvlarga erishildi. Bular, o‘z navbatida, ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlikni yuqori bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.*

Aytish joizki, O‘zbekiston hamda Malayziya aloqalari mustahkam do‘stlik, o‘zaro manfaatli hamkorlik, umumiy din va o‘xshash madaniy qadriyatlarga tayanadi. O‘zaro sheriklikning imkoniyatlari katta.

Xususan, Malayziya Janubi-Sharqiy Osiyodagi yuqori texnologiyali sanoat, elektronika eksporti va turizmga asoslangan kuchli iqtisodiyotga ega o‘lkalardan biridir. Ikki mamlakatning o‘zaro savdo aylanmasi 2024-yilda 102,4 mln. AQSH dollaridan oshdi. Albatta, ushbu ko‘rsatkich davlatlar hamkorligining salohiyatini aks ettirayotgani yo‘q. Shu sababli tashrif davomida Imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitimni ishlab chiqish, o‘zaro sanoat ko‘rgazmalarini o‘tkazish, Sanoat kooperatsiyasi dasturini qabul qilishga kelishib olingani aynan tovar ayirboshlashni ko‘paytirishga qaratilgan. Qolaversa, investitsiyalar, innovatsiyalar, texnologik kooperatsiya, neft-kimyo, elektronika, “yashil” energetika, “aqlli” qishloq xo‘jaligi, turizm, geologiya, farmatsevtika kabi tarmoqlarda Malayziyaning salmoqli ko‘rsatkichlari sababli O‘zbekiston uchun ushbu sohalarda hamkorlikni rivojlantirish strategik ahamiyatga ega.

Yana bir jihat shundaki, har ikki davlat ham islom an’analariga asoslangan o‘xshash madaniy va tarixiy ildizlarga ega. Bu sayyohlik, ayniqsa, diniy hamda tarixiy sohalarda gumanitar aloqalarni, islom moliyasini amalga oshirish, madaniy almashinuvlarni rivojlantirish va qo‘shma loyihalarni ilgari surish uchun yaxshi zamin yaratadi.

➔ 2

**Oliy Majlis Senatida**

## QONUN IJODKORLIGIDA YOSHLAR OVOZI

*Oliy Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamentining birinchi majlisi bo‘lib o‘tdi.*



Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligida o‘tgan tadbirda so‘zga chiqqanlar Yoshlar parlamenti a’zolari yaratilgan imkoniyatlar, qabul qilinayotgan qonun va qarorlar bilan tengdoshlarini yaqindan tanishtirish, ularning muammo va takliflarini tegishli organlarga yetkazish bilan birga qonun ijodkorligi jarayonida ham faollik ko‘rsatib kelayotganini ta’kidladi. Yoshlar parlamentining 2 nafar a’zosi Qonunchilik palatasi, 20 nafari esa xalq ishonchiga sazovor bo‘lib, mahalliy Kengashlar deputatligiga saylangani amaliy natija sifatida e’tirof etildi.

Yoshlar parlamenti a’zolari barcha yo‘nalishda senatorlar bilan yonma-yon turib tajriba orttirdi, yangi institut doirasida muayyan natijalarga erishib, zarur tuzilma ekanini isbotladi. Yoshlar va ularning muammolariga duch kelar ekanmiz, ba’zilariga taskin beramiz, ayrimlariga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatamiz. Yoshlar parlamenti esa ayni shu masalalarni qonunchilikda aks ettirish imkoniyatiga egaligi bilan muhim huquqiy institut hisoblanadi.

Aytish joizki, Yoshlar parlamenti mahalliy Kengashlar tavsiyasi asosida 84 nafar 30 yoshgacha bo‘lgan deputatlardan, 10 nafari Yoshlar ishlari agentligi, 6 nafari Oliy Majlis Senatining tegishli qo‘mitasi tavsiyasiga binoan shakllantirilgan.

➔ 2

## O‘ZARO HURMAT RUHIDA RIVOJ TOPAYOTGAN STRATEGIK ALOQALAR

*Oliy Majlis Senati Raisining birinchi o‘rinbosari Sodiq Safoyev Turkiyaning O‘zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Olgan Bekar bilan uchrashuv o‘tkazdi.*

**Hamkorlik**

Unda ikki davlat rahbarlarining siyosiy irodasi, o‘zaro ishonchga asoslangan do‘stona munosabatlari tufayli aloqalar yangi bosqichga ko‘tarilgani, keng qamrovli strategik sheriklik mustahkamlangani ta’kidlandi.

O. Bekar O‘zbekistonda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan keng ko‘lamli demokratik islohotlarga yuksak baho berarkan, o‘zining elchilik faoliyati davomida o‘zaro hamkorlik loyihalarini amalga oshirishdagi ishtirokidan mamnun ekanini bildirdi.

Suhbat davomida parlamentlararo aloqalarning ko‘lami kengaygani, do‘stlik guruhlari hamda hududlararo munosabatlarning faollashganiga to‘xtalib o‘tildi. Parlamentlararo muloqotni yanada rivojlantirish savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va texnologik, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi oliy darajada erishilgan kelishuvlarni izchil amalga oshirishga xizmat qilishi qayd etildi.

**“Xalq so‘zi”.**

**Kengash yig‘ilishi**

## MUROJAATLAR BILAN ISHLASH TIZIMI XALQ VAKILLARINI SAYLOVCHILARGA YAQINLASHTIRMOQDA

*Prezidentimiz 2024-yil 18-noyabr kuni yangi saylangan Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi majlisida aholi bilan bevosita muloqot qilish, odamlarni qiynayotgan muammolarni joyida hal etish bugun juda dolzarb masalalardan biri ekanligini alohida ta’kidlagan edi.*

Har oyning oxirgi haftasini o‘z saylov okrugida o‘tkazayotgan deputatlar davlat rahbari talabidan kelib chiqqan holda aholi xonadonlari, tadbirkorlik subyektlari, ijtimoiy soha obyektlariga borib, fuqarolar, tadbirkorlar, jamoatchilik vakillari va yoshlar bilan yuzma-yuz muloqot qilishyapti.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Kengashining navbatdagi yig‘ilishida deputatlarning saylov okruglaridagi uchrashuvlari yakunlari hamda quyi palatada jismoniy va yuridik shaxslarning qonun hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan takliflarini ko‘rib chiqish borasidagi ishlarini yanada samarali tashkil etish haqidagi masalalar atroflicha muhokama qilindi.

2024-yilgi parlament saylovlarida 75 nafar deputat yangi proporsional saylov tizimi asosida saylangan edi. Yagona saylov okrugi bo‘yicha partiya ro‘yxati asosida saylangan ushbu deputatlar ham hududlarga biriktirilib, ularning joylardagi faoliyatini tashkil etish konsepsiyasi tasdiqlandi va hududlarda saylovchilar bilan uchrashuvlari o‘tkazildi.

Xususan, joriy yil 27-yanvar – 1-fevral kunlari deputatlar yangicha yondashuv, yangicha shakl va uslublar orqali xalq bilan yaqindan muloqot qildi. Aholi va mahalliy Kengash deputatlari bilan bo‘lib o‘tgan uchrashuvlarda deputatlar davlatimiz rahbarining o‘tgan yil noyabr oyida parlamentdagi uchta tarixiy nutqi mazmun-mohiyati va ahamiyati, yangi shakllangan parlament, partiyalar fraksiyalari va qo‘mitalar faoliyati haqida atroflicha ma’lumot berishdi. Uchrashuvlarda aholi muammolarini o‘rganish va ularga ijobiy yechim topish masalalari ustuvorlik kasb etdi va joylardagi muammolarni partiyalarning siyosiy mafkurasi va elektorati manfaatidan kelib chiqib o‘rganishga katta ahamiyat qaratildi.

O‘zLiDeP – tadbirkorlik, qishloq xo‘jaligidagi islohotlar, fermer va dehqon xo‘jaliklari faoliyati, “Milliy tiklanish” DP – milliy turizm, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rivojlantirish, “Adolat”



SDP – tibbiyot sohasidagi muammolar, dorilar ustidan nazoratni kuchaytirishga oid masalalar, O‘zXDP – nogironligi bor insonlarni qo‘llab-quvvatlash, ta’lim sohasidagi muammolar va Ekopartiya tomonidan “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish, atmosfera havosi tozaligi, chiqindilar masalalari o‘rganildi.

O‘tkazilgan uchrashuvlar va muloqotlarda mamlakatimizda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning borishi, yangi qabul qilingan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyati va ahamiyati saylovchilarga yetkazildi. Ochiq va samimiy muloqotlar davomida davlat dasturi loyihasining xalq bilan bamaslahat qabul qilinayotgani, unda aholining barcha zarur ehtiyoji qamrab olingani yurtdoshlarimizning alohida e’tirofiga sazovor bo‘lganligi qayd etildi.

➔ 2

# QONUN IJODKORLIGIDA YOSHLAR OVOZI



1

Yoshlar parlamentining yangilangan tarkibi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, navqiron jamoaning 13 nafar a’zosi turli davlat mukofotlari bilan taqdirlangan, 11 nafari xorijiy oliy o‘quv yurtlarini tamomlagan bo‘lib, tarkibning 95 foizini oliy ma’lumotli yoshlar hamda 30 foizini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Ularning huquqshunos, iqtisodchi, pedagog, tadbirkor, ekolog hamda madaniyat, sport va sog‘liqni saqlash vakillaridan tashkil topgani barcha yo‘nalishda samarali faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Senatorlar, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining raislari, doimiy komissiyalar a’zolari, hududlardagi faol yoshlar va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida tashkiliy masalalar ko‘rib chiqildi. Laylo Aslonova Yoshlar parlamenti raisi, Ibrohimjon Jo‘raboyev hamda Azizbek Ochilboyev Yoshlar parlamenti raisi o‘rinbosarlari etib tasdiqlandi. Shuningdek, komissiyalar raislari va ularning a’zolari ham saylandi.

Shundan so‘ng Oliy Majlis Senati Raisi Yoshlar parlamenti a’zolari bilan dildan suhbatlashib, ular faoliyatida e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalarga to‘xtalib o‘tdi.

Qonun ijodkorligi jarayonida faol ishtirok etish, yoshlarga doir qonunlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar berish, joylarda yoshlar bandligi masalasini puxta o‘rganish va tizimli muammolarni aniqlash hamda bartaraf qilishga ko‘maklashish muhimligi ta’kidlandi.

Yoshlar parlamenti jinoyatchilik, bolalar va ayollarga nisbatan tazyiq hamda zo‘ravonlik holatlarining oldini olish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot tadbirlarida faol ishtirok etishi, xorijiy mamlakatlarning yoshlar parlamentlari bilan hamkorlik qilishi va o‘zaro tajriba almashishi lozimligi alohida aytib o‘tildi.

Amalga oshirilayotgan loyihalar va tadbirlarni keng jamoatchilikka yetkazishda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, aniq media-reja asosida ishni tashkil qilish hamda ularni yoshlar ko‘p foydalanadigan ijtimoiy tarmoqlarda muntazam yoritib borish yuzasidan tavsiyalar berildi. Qonun ijodkorligida yoshlar ovozi bundan-da baralla jaranglashiga ishonch bildirildi.

Yoshlar tomonidan ham bir qator muhim taklif va tashabbuslar ilgari surildi. Yoshlar parlamentining kelgusidagi ustuvor vazifalari hamda rejalari belgilab olindi.

**Aziz NORQULOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# MUROJAATLAR BILAN ISHLASH TIZIMI XALQ VAKILLARINI SAYLOVCHILARGA YAQINLASHTIRMOQDA

1

Prezidentimizning 2024-yil 23-sentabrdagi tegishli qarori bilan tasdiqlangan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturining mohiyati va ahamiyati saylovchilarga tushuntirilib, uning yo‘nalishlari va hududlar kesimida ijro etilishi holati ustidan ta’sirchan parlament nazoratini o‘rnatish choralari ko‘rildi. Bundan tashqari, fuqarolarning qabullari tashkil qilinib, ularda 3 963 nafar fuqaro ishtirok etdi. Ushbu qabullarga hududlardan quyi palataga murojaat yo‘llagan fuqarolar ham taklif qilinib, ularning masalalari joyida ko‘rib chiqildi.

Bunday uchrashuvlar aholi va saylovchilarni o‘ylantirayotgan ayrim masalalar va kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish imkonini bermoqda. Jumladan, deputatlar va mahalliy ijro organlari hamkorligida ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida aholi tomonidan ko‘tarilgan 165 ta masala ijobiy hal qilindi. Xususan, deputat Manzura Salimovaning sa’y-harakati bilan fuqaro M. Rasulovaga viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi tomonidan bepul jarrohlik amaliyotini o‘tash belgilandi. Deputat Azamat Pardayevning harakati bilan Jomboy tumani “G‘azira” MFY hududidagi ko‘chaga 10 dona beton simyog‘och o‘rnatilgan bo‘lsa, deputat Tohir Polvonov tashabbusi bilan Bog‘ot tumanining Oqtepa mahallasida faoliyati to‘xtab qolgan ko‘p tarmoqli oilaviy poliklinika qaytadan ish boshladi.

Shuningdek, aholini tashvishlantirayotgan tuman va shahar darajasidagi 710 ta, viloyat darajasidagi 174 ta dolzarb masalani mahalliy ijro hokimiyati va boshqa tegishli mutasaddi idoralar bilan birgalikda hal etish choralari ko‘rildi. Vaqt va mablag‘ talab qiladigan respublika darajasidagi 58 ta masala esa alohida nazoratga olindi.

Kengash yig‘ilishida Qonunchilik palatasida jismoniy va yuridik shaxslarning qonun hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan takliflarini ko‘rib chiqish borasidagi ishlarni yanada samarali tashkil etish masalasi ham muhokama qilindi.

Qayd etilganidek, hisobot davrida Qonunchilik palatasida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan samarali ishlashga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, 2024-yilda Qonunchilik palatasiga jismoniy va yuridik shaxslardan jami 5 932 ta murojaat tushgan. Ular orasida qonun hujjatlarini takomillashtirishga qaratilgan takliflarning soni ko‘payib borayotganini ko‘rish mumkin. Masalan, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qonunchilikka yuborilgan takliflar soni 2023-yilda jami 332 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilda ularning soni 378 taga yetgan. Ushbu murojaatlar Qonunchilik palatasining qo‘mitalari tomonidan belgilangan tartibda ko‘rib chiqilib, 120 tasini tegishli davlat organlari bilan birgalikda hal etish choralari ko‘rilgan. 30 dan ortiq takliflar qonunlarni qabul qilish jarayonida inobatga olingan.

Ilgari fuqarolar o‘z murojaatlarida muayyan muammo va masalalarni ko‘targan bo‘lsa, keyingi paytlarda yurtdoshlarimiz qonun hujjatlarini takomillashtirishga doir asoslantirilgan takliflarni ham bildirmoqda. Xususan, hisobot davrida fuqarolar tomonidan, asosan, Jinoyat, Jinoyat-protsessual, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi, Mehnat, Oila, Uy-joy, Soliq kodekslari hamda “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi, “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi, “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi, “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi qator qonunlar bo‘yicha takliflar yuborilgan.

Bunday fuqarolar bilan uchrashuvlar tashkil etilib, takliflari ularning ishtirokida muhokama qilingan. Masalan, fuqarolar Iskandar Rasulov va Xurshida Qurbonovaning “O‘zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan bino va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi qonun loyihasiga bergan takliflari inobatga olingan va loyihaning 12, 16 va 28-moddalarida aks ettirildi.

Kengash yig‘ilishida Qonunchilik palatasi qo‘mitalarining jismoniy va yuridik shaxslardan kelgan qonunchilikni takomillashtirishga doir takliflarni ko‘rib chiqish borasidagi mas’uliyatini yanada oshirish, berilgan takliflarni ular mualliflari ishtirokida qo‘mitalarda muntazam ravishda muhokama qilib borish amaliyotini yanada kengaytirish hamda asosli taklif yo‘llagan fuqarolarni rag‘batlantirish choralarini ko‘rish zarurligi qayd etildi.

Yig‘ilishda kun tartibidagi boshqa masalalar ham muhokamadan o‘tkazilib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

“Xalq so‘zi”.



# MALAYZIYA MA’RIFATI

**Uning naqadar teran ekanligi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ushbu mamlakatga rasmiy tashrifi davomida yana bir bor yorqin namoyon bo‘ldi**

1

Prezidentimizning Malayziyaga tashrifi kunlarida bu mamlakatda tajribasini oshirayotgan yosh olimning mana bu fikrlariga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

**Umida Jo‘rayeva, Samarqand davlat universiteti doktoranti, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi:**

*– Prezident Shavkat Mirziyoyevning Malayziyaga rasmiy tashrifi arafasida poytaxt Kuala-Lumpur ko‘chalarida O‘zbekiston bayroqlari, Prezidentimizning ulkan suratlari o‘rnatildi. Kuala-Lumpurdagi hashamatli binolar O‘zbekiston bayrog‘i rangida jilolandi. Men bundan juda faxrlandim, qalbim quvonchga to‘ldi. Hamkasblarim meni qutlashdi. O‘zbekiston Prezidentiga bo‘lgan juda katta hurmat va samimiy munosabatga shaxsan o‘zim guvoh bo‘ldim. To‘g‘risi, Vatanimni sog‘ingan ekanman. Mana shu kunlarda xuddi Malayziyaga O‘zbekiston kelganday bo‘ldi... 2025-yilning 17-yanvaridan Malayziyaning Putra universitetida tajriba orttiryapman. Putra universiteti QS reytingida 123-o‘rinda turadi. Professor Nik Mohd Asri Long rahbarligida ilmiy tadqiqot olib boryapman...*

Samarqand davlat universiteti Malayziyaning bir qator oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatgan. Bu munosabatlar allaqachon amaliy natijalar berayotganligini quyidagi fikr-mulohazalardan ham anglasa bo‘ladi.

**Muhiddin Mo‘minov, Samarqand davlat universiteti professori:**

*– Men QS reytingida 181-o‘rinda turuvchi Malayziya texnologiya universitetida ishlaganman. 2 PhD va 4 nafar magistrga ilmiy rahbarlik qildim. Professor-o‘qituvchilar almashinuv dasturi doirasida 2024-yilda bir oy Terengganu universitetida bo‘ldim va qo‘shma ilmiy seminarlar o‘tkazdik. MARA texnologiya universitetida tajribamni oshirdim. “UiTM International Conferense on Mathematical Scienses” nomli xalqaro konferensiyada asosiy ma’ruzachi (Keynot speaker) sifatida ishtirok etdim. Bir yildan beri mazkur universitetda o‘tkazib kelinadigan onlayn xalqaro ilmiy seminarlarda qatnashmoqdaman. Ayni vaqtda texnologiya universiteti olimlari bilan darslik tayyorlash va Terengganu universiteti professorlari bilan “Ssopus” bazasiga kiruvchi jurnallarda maqola nashr etish bo‘yicha izlanishlar olib bormoqdamiz. 2025-yilda Terengganu universiteti taklifiga binoan bir oylik tajriba oshirishni va talabalarga dars o‘tishni rejalashtirganman...*

**Sahobiddin Axatqulov, Samarqand davlat universitetining Boshqaruv nazariyasi va axborot xavfsizligi kafedrasi dotsenti:**

*– Men QS reytingida 150-o‘rinda turuvchi Malayziya Milliy universitetida tadqiqot olib borganman. Professor Muhammad Salmiy Muhammad Nuroniy ilmiy rahbarligida PhD dissertatsiyasini ushbu mamlakatda himoya qildim. Samarqand davlat universitetiga qaytganimdan so‘ng xorijda “TOP – 300”-talikka kiruvchi universitetning PhD diplomi DSc ilmiy darajasiga nostrifikatsiya qilindi. Shimoliy Malayziya universiteti talabalariga onlayn ma’ruzalar o‘tib kelmoqdaman. Malayziyalik olimlar bilan hamkorlikda 20 dan ortiq maqolalarim “Scopus” va “Web of Science” ma’lumotlar bazasiga kiruvchi jurnallarda e’lon qilingan...*

Bugungi kunda universitetimiz Malayziyaning MARA texnologiya, Putra, Visma Linkoln, Pendidikan Sultan Idris, Terengganu va INTI xalqaro universitetlari bilan hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ygan.

Buning natijasida bugungi kunda Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi Habibullo Axatqulov Shimoliy Malayziya universitetida dotsent lavozimida ishlamoqda. Mazkur universitet QS reytingida 554-o‘rindan joy olgan. O‘zbekistonlik olim shu kungacha 4 PhD va 15 magistrantga rahbarlik qilgan.

Samarqand davlat universitetining Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi instituti o‘qituvchisi Sindor Pardayev esa Malayziyaning Putra universiteti doktoranturasida tahsil olmoqda. Unga mazkur institut magistrantlariga dars bergan professor Latifa Binti Abdumanaf rahbarlik qilmoqda. Sindor Pardayev ayni vaqtda dissertatsiyasini himoya qilish arafasida.

Universitetimizning Malayziya oliy ta’lim muassasalari bilan munosabatlari o‘zaro tenglik asosiga qurilgan.

2024-yilda Samarqand davlat universitetining Ehtimollar nazariyasi va amaliy matematika kafedrasida Malayziyaning Terengganu universiteti professorlari Zabidin Bin Salleh va Che Mohd Imran Bin Che Taiblar talabalarimizga dars o‘tishdi. Bu olimlar SamDUdagi faoliyati davomida “Scopus” bazasiga kiruvchi ilmiy jurnallarda bir necha maqolalar chop etdi.

SamDU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazida MARA texnologiya universiteti dotsenti Sharifah Binti Aliman tomonidan “Malayziya akademik markaz sifatida: uning oliy ta’lim tizimi haqida tushunchalar” mavzuida onlayn seminar tashkil etildi...

Prezidentimizning Malayziyaga rasmiy tashrifidan so‘ng oliy ta’lim sohasidagi munosabatlarning ham yangi davri boshlanishiga ishonchim komil. Buni tashrif davomida imzolangan qo‘shma bayonot va qator hujjatlar ham tasdiqlaydi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim 2025-2026-yillarni O‘zbekiston – Malayziya sherikligini innovatsion rivojlantirish davri, deb e’lon qilishga kelishib oldilar.

Prezidentimizning xorijga buyurgan har bir tashrifi zamirida Vatanimizni yanada yuksaltirish, xalqimiz hayotini farovonlashtirish, mamlakatimiz nufuzini oshirish maqsadi mujassam. Malayziya ma’rifatga, ta’limga birinchi darajada e’tibor berish natijasida yuksak marralarni zabt etgani Prezident Shavkat Mirziyoyevning ma’rifatli jamiyat g‘oyasiga hamohangdir.

**Rustam XOLMURODOV,**
**Samarqand davlat universiteti rektori,**
**O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi,**
**Oliy Majlis Senati a’zosi.**

**Senator va hayot**

# MAHALLIY KENGASHLAR – DOIMIY E’TIBORDA

*Xabar berganimizdek, cenatorlarning hududlardagi o‘rganish va uchrashuvlari davom etmoqda.*

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi raisi Abdulhakim Eshmuratov Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida bo‘ldi.

Tuman Kengashi deputatlari, doimiy komissiya raislari, kotibiyat xodimlari hamda faollarga Oliy Majlis Senati tomonidan ishlab chiqilgan xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari faoliyatini namunali tashkil etish mezonlari tanishtirildi. Mahalliy Kengash faoliyatini tashkiliy-huquqiy jihatdan tartibga solish, qarorlarni qonunchilik hamda yuridik texnika qoidalari asosida qabul qilish, qonunlar muhokamasi va targ‘iboti, qonunchilikka doir takliflarni tayyorlash masalalari muhokama markazida bo‘ldi.

Senator, shuningdek, xalq deputatlari Sho‘rchi hamda Denov tumanlari Kengashlarida bo‘lib, ishlarni samarali yo‘lga qo‘yish, faoliyatni takomillashtirish bo‘yicha tegishli taklif va tavsiyalar bildirdi.

* * *

Oliy Majlis Senatining Fan, ta’lim va sog‘liqni saqlash masalalari qo‘mitasi raisi Bahrom Abdullayev boshchiligidagi ishchi guruh Oqdaryo tumanining Po‘latdarxon mahallasidagi davlat-xususiy sheriklik asosida faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta’lim tashkilotidagi shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. Shu yerning o‘zida “mahalla yettiligi” bilan uchrashib, aholi salomatligini mustahkamlash, bandligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish borasida o‘z tavsiyalarini berdi.

Tuman deputatlari va tegishli tashkilotlar rahbarlari ishtirokida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat dasturlari ijrosi va murojaatlar bilan ishlashda xalq vakillarining roli muhim ahamiyat kasb etishi, deputatlik nazorati muhimligi to‘g‘risida so‘z bordi.

Shundan so‘ng senator Qo‘shrabot tumanidagi Shovana mahallasida “mahalla yettiligi” bilan uchrashib, “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar bilan tanishdi. Keksalar maslahat guruhi nuroniylari bilan suhbat o‘tkazdi. Tumandagi 45-umumiy o‘rta ta’lim maktabidagi sharoitlar bilan tanishilib, ta’lim sifatini yaxshilash bo‘yicha mas’ullarga tegishli ko‘rsatmalar berildi.

* * *

Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari Odiljon Mamatkarimov ishtirokida Namangan viloyatida bir qator tadbirlar bo‘lib o‘tdi.

Dastlab senator xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashi faoliyati bilan tanishib, mahalliy boshqaruv samaradorligini oshirish hamda 2025-yilga mo‘ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar ijrosi bo‘yicha muhokamalar o‘tkazdi.

Ma’naviyat va ma’rifat markazining viloyat bo‘limida bo‘lib o‘tgan yoshlar va nuroniylar bilan uchrashuvda qonunchilikdagi islohotlar, investitsiya muhitining rivoji haqida so‘z bordi. Uychi tumanining Ezgulik mahallasida o‘tkazilgan ochiq muloqotda ijtimoiy-iqtisodiy muammolar tinglandi. Ayrim masalalar joyida hal qilinib, mas’ul organlarga tegishli tavsiyalar berildi.

Uchrashuvlar doirasida senator “Kardiologiya: kecha va bugun” mavzuidagi davra suhbatida qatnashib, mamlakatimizda tibbiyot sohasini rivojlantirish, kardiologiya yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ishlar va qonunchilikdagi yangiliklar haqida fikr bildirdi.

* * *

Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari Qobul Tursunov xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashidagi siyosiy partiyalar guruhlari rahbarlari hamda faollar bilan uchrashdi.

Muloqotda senator jamiyat taraqqiyoti va mamlakat rivojida qonun ustuvorligini ta’minlash, inson huquq va manfaatlarini himoya qilish, iqtisodiy barqarorlikni saqlash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratish bo‘yicha Oliy Majlis Senati tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar, bunda mahalliy Kengashlarning o‘rniga e’tibor qaratdi.

“ZOOM” platformasi orqali o‘tkazilgan muloqotda viloyatning shimoliy hududlaridagi mahalliy Kengashlar faollari ham ishtirok etdi.

* * *

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi Qashqadaryo viloyati bo‘limi rahbari, senator Komila Karomova ushbu viloyatdagi xususiy maktabda yaratilgan sharoitlar, ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan ilg‘or usullar va imkoniyatlar bilan yaqindan tanishdi.

Maktabning o‘quv va kompyuter xonalari, kutubxona, oshxona va boshqa infratuzilmalarni ko‘zdan kechirdi. Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi, yuqori malakali o‘qituvchilar jamoasi hamda o‘quvchilarning intellektual rivoji uchun yaratilgan qulay muhit senatorda katta taassurot qoldirdi.

*Ushbu o‘rganishlar mahalliy boshqaruvni rivojlantirish, aholi muammolarini hal qilish hamda qonunchilik islohotlari natijalarini targ‘ib etishga qaratilgan bo‘lib, ularning amaliy natijalari hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladi.*

**“Xalq so‘zi”.**

**Oliy Majlis Qonunchilik palatasida**

# KONSEPSIYA LOYIHASI MUHOKAMASI

*Kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasida O‘zbekiston Respublikasida fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasi loyihasining muhokamasiga bag‘ishlangan uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Unda yurtimizdagi konfessiyalar vakillari qatnashdi.*

Spiker o‘rinbosari Rahimjon Hakimov kirish so‘zida konsepsiya loyihasining ahamiyati, uni qabul qilish zarurati haqida atroflicha to‘xtaldi.

Ta’kidlanganidek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining bir guruh deputatlari tomonidan ishlab chiqilgan mazkur konsepsiya va uni tasdiqlash to‘g‘risidagi qonun loyihasi shu yilning 31-yanvar kuni quyi palataning majlisida birinchi o‘qishda qabul qilinib, 10-fevralga qadar palata rasmiy veb-saytiga jamoatchilik muhokamasi uchun joylashtirilgan.

Muhokamalarda yurtdoshlarimiz katta qiziqish bilan ishtirok etmoqda, o‘z taklif va mulohazalarini bildirmoqda. Xususan, konsepsiya loyihasi jamoatchilik muhokamasiga chiqarilgan kundan to bugunga qadar 300 ga yaqin izohlar, taklif va tavsiyalar kelib tushdi.

Tadbirda konsepsiya davlatchiligimiz rivojining boy milliy-tarixiy tajribasiga, umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda ishlab chiqilgani, ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali O‘zbekistonda umumjamiyat manfaatlarini ro‘yobga chiqarish, demokratiya, dunyoviylik, erkinlik, tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik asosida o‘zaro totuvlikda yashash hamda izchil taraqqiy etish uchun zarur barqaror muhitni ta’minlashga qaratilgani ta’kidlandi.

Ushbu hujjat bilan keyingi yillarda mazkur sohada amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar va yangilangan Konstitutsiyamiz talablaridan kelib chiqib, qator tushunchalarga aniq ta’riflar berilmoqda. Shuningdek, vijdon erkinligi huquqini yanada kafolatlash, diniy sohadagi davlat siyosatining maqsadi, vazifalari, tamoyillari, ustuvor yo‘nalishlari hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari ochib berilyapti.

Tadbir davomida ishtirokchilar konsepsiyaning mazmun-mohiyati bo‘yicha o‘zaro fikr almashdi. Ma’lum qilinganidek, konsepsiya din sohasidagi siyosatning maqsadini, yo‘nalishlari va mexanizmlarini belgilab beradi. Qolaversa, dunyoviy davlat tushunchasini atroflicha yoritib, bu boradagi yanglish qarashlar va noto‘g‘ri talqinlarga chek qo‘yadi.

Uchrashuvda konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar haqida ham batafsil ma’lumotlar berildi. Jumladan, bu borada fuqarolarning xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik bo‘yicha kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, jamiyatda qonun ustuvorligini, totuvlik, ijtimoiy hamjihatlik va birdamlik muhitini mustahkamlash, davlat hamda konfessiyalar o‘rtasida diniy bag‘rikenglik va konfessiyalararo totuvlikni ta’minlash, diniy sohada kadrlar tayyorlash hamda diniy masalalarni o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqot va ekspert-tahliliy loyihalarni amalga oshirish ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yish kabi natijalarga erishish mumkinligi ta’kidlandi.

Anjumanda konfessiyalar vakillari so‘zga chiqib, bugungi kunda yurtimizda ularning faoliyati uchun yaratib berilayotgan keng sharoitlar haqida batafsil to‘xtaldi. Mamlakatimizda barcha diniy konfessiyalar rahbarlaridan iborat tarkibdagi Konfessiyalar ishlari bo‘yicha kengash samarali faoliyat olib borayotgani alohida e’tirof etildi.

Turli konfessiyalar vakillari O‘zbekiston millatlararo va konfessiyalararo totuvlik amalda ta’minlangan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida barqaror rivojlanib kelayotganini, unda 16 ta konfessiyaga mansub 2300 dan ortiq diniy tashkilot erkin faoliyat yuritayotganini alohida qayd etishdi.

Mazkur Konsepsiya o‘z vaqtida ishlab chiqilgani hamda uni qabul qilish ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali O‘zbekiston xalqining birligi, birdamligi, yurtimiz taraqqiyoti uchun xizmat qilishi alohida e’tirof etilib, u qo‘llab-quvvatlandi.

**“Xalq so‘zi”.**

# Do‘stlik rishtalari parlamentlararo muloqot orqali yanada mustahkamlanadi

1

Ma’lumki, Malayziya ta’lim va ilm-fan tizimini rivojlantirishning muvaffaqiyatli modeliga ega. Uning universitetlari jahon miqyosida reytingga ega bo‘lib (THE reytingiga asosan 2025-yilda Malayziyaning 7 ta universiteti “TOP – 500” eng nufuzli oliygohlar ro‘yxatida aks ettirilgan), ularning kadrlar tayyorlash, xususan, muhandislik, IT va biznes boshqaruvi bo‘yicha tajribasi raqobatbardosh ta’lim tizimini yaratishda O‘zbekiston uchun foydali yo‘nalishlardan biridir. Qo‘shma ta’lim dasturlari, talabalar almashinuvi va ilmiy hamkorlik malakali mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Darvoqe, Malayziya xalqaro maydonda faol pozitsiyani egallaydi. Ushbu davlat BMT Bosh Assambleyasi tomonidan O‘zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan 6 ta rezolyutsiyani qo‘llab-quvvatladi va hammuallifi bo‘ldi. Malayziya bilan hamkorlik global miqyosda qo‘shma tashabbuslar uchun imkoniyatlar ochadi.

Davlatimiz rahbarining Malayziyaga rasmiy tashrifi davomida barcha sohani qamrab oluvchi muzokaralar olib borilib, Kelajak avlodlar uchun strategik sheriklik yo‘lida ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish to‘g‘risida qo‘shma bayonot imzolandi va hamkorlikning turli sohasida salmoqli kelishuvlar to‘plami qabul qilindi. Bu borada Oliy Majlis Qonunchilik palatasi ham Malayziya parlamenti bilan parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib kelmoqda.

So‘nggi besh yil ichida O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasidagi ikki tomonlama parlament aloqalari sezilarli darajada mustahkamlandi. Shu vaqt mobaynida ko‘plab ikki tomonlama tashriflar, qator uchrashuvlar o‘tkazildi. Ularda asosiy e’tibor qonunchilik va parlament nazorati bo‘yicha tajriba almashish, savdo-sotiq, investitsiyalar, ta’lim, atrof-muhitni asrash, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, turizm sohalarida o‘zaro hamkorlik masalalariga qaratildi.

Ayni vaqtda Qonunchilik palatasi xalqaro hamkorlik faoliyatida mamlakatimiz rahbarining Malayziyaga rasmiy tashrifi natijasida erishilgan kelishuvlarni parlament diplomatiyasi orqali ham amalga oshirishga katta e’tibor va mas’ullik bilan yondashadi. Xususan, parlamentlar doirasida faol sheriklik va almashinuvlarni davom ettirish, qonun ijodkorligi masalalarida amaliy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, muhim investitsiyaviy, infratuzilmaviy, ijtimoiy va madaniy-gumanitar dasturlarni amalga oshirishga ko‘maklashish masalalari ushbu yo‘nalishda faoliyatning asosini tashkil qiladi.

O‘zbekiston va Malayziya parlamentlararo hamkorlik guruhlari faoliyati doirasida qonunchilik, iqtisodiy va madaniy-gumanitar sheriklik sohasida axborot almashinuvi rivojlantirilib, xalqaro tuzilmalar doirasida o‘zaro qo‘llab-quvvatlash davom ettiriladi.

**Ulug‘bek ShERMATOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Xalqaro ishlar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi.**

**O‘zbekiston agrosanoat mahsulotlari Berlinda namoyish qilinmoqda.**

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYAVIY SUDINING QARORI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NOMIDAN**

# O‘zbekiston Respublikasining “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonuni 8, 9, 10-moddalari ikkinchi qismining O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasiga oid normalariga sharh berish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi (bundan buyon matnda – Konstitutsiyaviy sud) raislik qiluvchi M.Abdusalomov, sudyalar A.Gafurov, K.Kamilov, J.Balkibayeva, K.Davletova, R.Ismaylov, A.Raximov va A.Raxmanovdan iborat tarkibda, katta ekspert U.Giyazovning kotibligida, taraf vakillari –O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o‘rinbosari Sh.Polvanov, sudyalari U.Xolov, Sh.Saidov, D.Israilova, O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi (bundan buyon matnda – Savdo-sanoat palatasi) vakillari N.Saparniyazov, J.Nosirovlarning ishtirokida, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining (bundan buyon matnda – Oliy sud) murojaati bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunining (bundan buyon matnda – “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonun) 8, 9, 10-moddalari ikkinchi qismining Savdo-sanoat palatasiga oid normalariga sharh berish to‘g‘risidagi ishni ochiq sud majlisida ko‘rib chiqdi.

Konstitutsiyaviy sud sudya K.Davletovaning ma’ruzasini, Oliy sud, Savdo-sanoat palatasi va tegishli davlat organlari vakillarining tushuntirishlarini hamda Konstitutsiyaviy sud huzuridagi Ilmiy-maslahat kengashi a’zolarining fikrlarini eshitib, ish materiallarini o‘rganib chiqib, quyidagilarni

**A N I Q L A D I:**

Oliy sud, Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari tomonidan 2023-yil va 2024-yilning 9 oyi davomida sudlarga kiritilgan da’vo arizalar (arizalar) yuzasidan davlat boji undirilishiga oid sud amaliyotini umumlashtirib, tahlil qilgan. Shu davr davomida respublika bo‘yicha fuqarolik ishlari bo‘yicha, iqtisodiy va ma’muriy sudlar tomonidan Savdo-sanoat palatasining palata a’zolari manfaatida kiritilgan da’vo arizalari (arizalar) qanoatlantirish rad etilishi natijasida 57 ta holatda 223 708 440 so‘m davlat boji Savdo-sanoat palatasidan, 6 179 ta holatda 40 815 919 954,1 so‘m davlat boji, manfaatida ariza kiritilgan Savdo-sanoat palata a’zolaridan undirilgan. Sudlarda bunday ikki xil amaliyotning shakllanishiga “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonun 8, 9, 10-moddalarining ikkinchi qismidagi Savdo-sanoat palatasiga oid normalarni turlicha talqin etilishi va ziddiyatli qo‘llanilishi sabab bo‘lgan. Mazkur Qonun normalari bir xilda talqin qilinishi va qo‘llanilishini ta’minlash maqsadida, Oliy sud Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilib, “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonun 8, 9, 10-moddalari ikkinchi qismining Savdo-sanoat palatasiga oid normalariga rasmiy sharh berishni so‘ragan.

Sud majlisida Oliy sud, Savdo-sanoat palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi va Konstitutsiyaviy sud huzuridagi Ilmiy-maslahat kengashi a’zolari vakillarining fikrlari va tushuntirishlari eshitildi.

Konstitutsiyaviy sud, Oliy sudning murojaati va unga ilova qilingan hujjatlarni o‘rganib chiqib, sud majlisida ishtirok etgan taraf vakillarining fikrlarini eshitib, “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonun 8, 9, 10-moddalari ikkinchi qismining Savdo-sanoat palatasiga oid normalariga sharh berishni lozim deb topdi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 133-moddasi birinchi qismining 5-bandi, “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonuni 4-moddasi birinchi qismining 4-bandiga muvofiq, Konstitutsiyaviy sud Konstitutsiya va qonun normalariga sharh beradi.

Konstitutsiyaviy Qonunning 85-moddasi ikkinchi qismiga binoan Konstitutsiyaviy sudga O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalarini rasmiy sharhlash haqidagi murojaatda Konstitutsiyada va qonunda ularning amaliyotda noto‘g‘ri yoki ziddiyatli tarzda qo‘llanilishiga olib kelgan noaniqliklar mavjudligiga doir vajlar hamda dalillar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak.

Oliy sudning murojaatida keltirilishicha, Savdo-sanoat palatasi tomonidan palata a’zolarining manfaatini ko‘zlab sudlarga kiritilgan da’vo arizalari yuzasidan davlat boji undirilishiga oid sud amaliyoti umumlashtirilgan. Unga ko‘ra, 2023-yil va 2024-yilning 9 oyida Savdo-sanoat palatasi tomonidan o‘z a’zolarining manfaatlarini ko‘zlab iqtisodiy sudlarga taqdim etilgan 59 883 ta da’vo arizasining 2 967 tasini qanoatlantirish rad etilgan va 36 643 092 823,3 so‘m davlat boji manfaati ko‘zlanib da’vo kiritilgan tadbirkorlik subyektlaridan undirilgan bo‘lsa, 2024-yilning 9 oyida 2 ta holatda jami 35 408 440 so‘m davlat boji Savdo-sanoat palatasi hisobidan undirilgan. Shu davr mobaynida ma’muriy sudlarga taqdim etilgan 940 ta da’vo arizaning 462 tasini qanoatlantirish rad etilgan bo‘lib, 407 ta qaror bilan 1 068 814 000 so‘m davlat boji manfaati ko‘zlanib da’vo kiritilgan palata a’zolaridan undirilgan bo‘lsa, 55 ta sud qarori bilan 188 300 000 so‘m Savdo-sanoat palatasi hisobidan undirilgan.

Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan esa 2023-yil va 2024-yilning 9 oyi davomida palata a’zolari manfaatida taqdim etilgan 350 945 ta da’vo arizasining 2 807 tasini qanoatlantirish rad etilgan va barcha holatda 3 104 013 130,8 so‘m davlat boji manfaati ko‘zlanib da’vo kiritilgan palata a’zosi hisobidan undirilgan.

“Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonun 8-moddasi birinchi qismining 14-bandi, shuningdek, 9 va 10-moddalari birinchi qismining 2-bandlariga asosan, Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari – palata a’zolarining manfaatlarini ko‘zlab qilingan da’volar bo‘yicha fuqarolik ishlari bo‘yicha, iqtisodiy va ma’muriy sudlarda davlat bojini to‘lashdan ozod qilingan.

“Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonun 8, 9, 10-moddalarining ikkinchi qismida O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari talablarini qanoatlantirish to‘liq yoki qisman rad etilgan taqdirda, davlat boji shu shaxslardan talablarning qanoatlantirilishi rad etilgan miqdoriga mutanosib ravishda undirilishi belgilangan.

Mazkur Qonun normalari sudlar tomonidan turlicha talqin qilinayotganligi ko‘rinadi. Masalan, ayrim ma’muriy va iqtisodiy sudlar tomonidan Savdo-sanoat palatasi a’zolarining manfaatlarini ko‘zlab qilingan da’volar bo‘yicha da’vo talablari qanoatlantirishdan rad etilganda Qonunning 9, 10-moddalari ikkinchi qismiga asosan davlat boji Savdo-sanoat palatasi hisobidan undirilgan bo‘lsa, fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan esa davlat boji manfaati ko‘zlanib da’vo kiritilgan palata a’zolari hisobidan undirilgan.

“Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasiga muvofiq, vakolatli muassasalarga va (yoki) mansabdor shaxslarga murojaat qilayotgan va o‘ziga nisbatan yuridik ahamiyatga molik harakat va (yoki) hujjatlar berish amalga oshiriladigan yuridik va jismoniy shaxslar davlat bojini to‘lovchilardir.

Sudlarga da’vo ariza (ariza) berishda davlat bojini to‘lash asoslari va tartibi, uni to‘lashni kechiktirish, to‘lashdan ozod qilish tartibi hamda davlat bojini qaytarish tartibi “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonun normalari bilan belgilangan.

“O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi to‘g‘risida”gi Qonuni 21-moddasining ikkinchi qismiga ko‘ra, Palata a’zolarining manfaatlarini ko‘zlab sudlarga davlat boji to‘lamasdan da’volar taqdim etish, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish huquqiga ega.

Mazkur Qonunning 35-moddasiga ko‘ra, Palata o‘z a’zolarining majburiyatlari bo‘yicha javob bermaydi.

Oliy sudning murojaatida “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonun 8, 9, 10-moddalarining ikkinchi qismida Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari talablarini qanoatlantirish rad etilgan taqdirda, davlat boji undirishda noaniqlikning mavjudligi va bu amaliyotda qonun normasining noto‘g‘ri talqin qilinishiga va qo‘llanilishiga olib kelayotganligi ko‘rsatilgan.

Konstitutsiyaviy Qonunning 85-moddasi birinchi qismiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalarini rasmiy sharhlash ularda normalarning amaliyotda noto‘g‘ri yoki ziddiyatli tarzda qo‘llanilishiga olib kelgan noaniqliklar topilgan taqdirda amalga oshiriladi. Shuningdek, “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunning 55-moddasida normativ-huquqiy hujjatlarni rasmiy sharhlash normativ-huquqiy hujjatda noaniqliklar topilgan, u amaliyotda noto‘g‘ri yoki ziddiyatli tarzda qo‘llanilgan taqdirda amalga oshirilishi belgilangan.

“Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunning 8, 9, 10-moddalari davlat bojini to‘lashdan ozod qilish masalasiga taalluqli bo‘lib, fuqarolik ishlari bo‘yicha, iqtisodiy va ma’muriy sudlarda davlat bojini to‘lashdan ozod qilish tartibini belgilaydi.

“Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunning 8-moddasi birinchi qismining 14-bandiga ko‘ra, Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari – palata a’zolarining manfaatlarini ko‘zlab qilingan da’volar yuzasidan fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlarda davlat bojini to‘lashdan ozod qilingan. Mazkur moddaning ikkinchi qismida, ushbu modda birinchi qismining 14-bandida ko‘rsatilgan shaxslarning talablarini qanoatlantirish to‘liq yoki qisman rad etilgan taqdirda, davlat boji shu shaxslardan talablarning qanoatlantirilishi rad etilgan miqdoriga mutanosib ravishda undiriladi.

“Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasi birinchi qismining 2-bandiga ko‘ra, Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari – palata a’zolarining manfaatlarini ko‘zlab qilingan da’volar yuzasidan iqtisodiy sudlarda davlat bojini to‘lashdan ozod qilingan. Mazkur moddaning ikkinchi qismida, ushbu modda birinchi qismining 2-bandida ko‘rsatilgan shaxslarning talablarini qanoatlantirish to‘liq yoki qisman rad etilgan taqdirda, davlat boji shu shaxslardan talablarning qanoatlantirilishi rad etilgan miqdoriga mutanosib ravishda undirilishi nazarda tutilgan.

“Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi birinchi qismining 2-bandiga ko‘ra, Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari – davlat boshqaruvi organlarining, ma’muriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishga vakolatli bo‘lgan boshqa organlarning, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, ular mansabdor shaxslarining qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan palata a’zolarining manfaatlarini ko‘zlab berilgan arizalar bo‘yicha ma’muriy sudlarda davlat bojini to‘lashdan ozod qilingan. Mazkur moddaning ikkinchi qismida, ushbu modda birinchi qismining 2-bandida ko‘rsatilgan shaxslarning talablarini qanoatlantirish to‘liq yoki qisman rad etilgan taqdirda, davlat boji shu shaxslardan talablarning qanoatlantirilishi rad etilgan miqdoriga mutanosib ravishda undirilishi belgilangan.

Qonun hujjatlarida davlat bojini to‘lashdan ozod etilgan davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek tashkilotlar tomonidan yuridik shaxslar va fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab taqdim etilgan da’vo talablarini qanoatlantirish rad etilgan yoki ular qisman qanoatlantirilgan taqdirda, davlat boji manfaatlari ko‘zlanib da’vo taqdim etilgan shaxslardan da’vo talablarining qanoatlantirilishi rad etilgan qismiga mutanosib ravishda undirilishi belgilangan.

“Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunning 19-moddasida davlat bojini undirishning o‘ziga xos xususiyatlari belgilangan. Mazkur moddaning yigirma to‘rtinchi qismida davlat boji to‘lashdan ozod qilingan davlat organlari hamda boshqa shaxslar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab bildirilgan talablarini qanoatlantirish rad etilgan yoki ular qisman qanoatlantirilgan taqdirda, davlat boji ariza qaysi shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab taqdim etilgan bo‘lsa, shu shaxslardan da’vo talablarining qanoatlantirilishi rad etilgan qismiga mutanosib ravishda undirilishi belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksining 118-moddasi yettinchi qismida, davlat boji to‘lashdan ozod qilingan davlat organlari hamda boshqa shaxslar tomonidan yuridik shaxslar va fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab taqdim etilgan da’vo talablarini qanoatlantirish rad etilgan yoki ular qisman qanoatlantirilgan taqdirda, davlat boji manfaatlari ko‘zlanib da’vo taqdim etilgan shaxslardan da’vo talablarining qanoatlantirilishi rad etilgan qismiga mutanosib ravishda undiriladi, deb belgilangan. Xuddi shunday normalar O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 138-moddasi va O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy sud ishlarini yuritish to‘g‘risidagi kodeksining 115-moddasi beshinchi qismlarida ham mustahkamlangan.

Yuqorida ko‘rsatilgan holatlardan kelib chiqib, “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunning 8, 9, 10-moddalari ikkinchi qismining Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari – palata a’zolarining manfaatlarini ko‘zlab qilingan da’volar va arizalar bo‘yicha, Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalarining talablarini qanoatlantirish to‘liq yoki qisman rad etilgan taqdirda, davlat boji shu shaxslardan talablarning qanoatlantirilishi rad etilgan miqdoriga mutanosib ravishda undiriladi degan norma, davlat boji ariza qaysi shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab taqdim etilgan bo‘lsa, shu shaxslardan da’vo talablarining qanoatlantirilishi rad etilgan qismiga mutanosib ravishda undirilishini nazarda tutadi, degan xulosaga olib keladi.

“Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonun 19-moddasining yigirma to‘rtinchi qismi bilan ushbu Qonunning 8, 9, 10-moddalari ikkinchi qismining Savdo-sanoat palatasiga oid normalarini qo‘llashda sudlar tomonidan Savdo-sanoat palatasi tomonidan sudlarga kiritilgan da’vo arizalar (arizalar) bo‘yicha talablarni qanoatlantirish rad etilgan yoki ular qisman qanoatlantirilgan holatlarda davlat boji undirishda turlicha amaliyot shakllangan.

Yuqorida ko‘rsatilgan Qonun normalarining bir xilda qo‘llanilishini ta’minlash, shuningdek, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalariga asosan “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunni yanada takomillashtirish masalasini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq ko‘rinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 133-moddasi birinchi qismining 5-bandi, “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonuni 4-moddasi birinchi qismining 4-bandi, 67, 69, 70, 72 va 85-moddalariga asosan, Konstitutsiyaviy sud

**Q A R O R Q I L D I:**

**1.** “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonun 8, 9, 10-moddalari ikkinchi qismining Savdo-sanoat palatasiga oid normalariga quyidagi mazmunda sharh berilsin:

O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy boshqarmalari – palata a’zolarining manfaatlarini ko‘zlab qilingan da’volari (arizalar) bo‘yicha “...ko‘rsatilgan shaxslarning talablarini qanoatlantirish to‘liq yoki qisman rad etilgan taqdirda, davlat boji shu shaxslardan talablarning qanoatlantirilishi rad etilgan miqdoriga mutanosib ravishda undiriladi” degan normani, davlat boji ariza qaysi shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab taqdim etilgan bo‘lsa, shu shaxslardan da’vo talablarning qanoatlantirilishi rad etilgan qismiga mutanosib ravishda undiriladi, deb tushunish lozim.

**2.** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga “Davlat boji to‘g‘risida”gi Qonunni yanada takomillashtirish masalasini ko‘rib chiqish tavsiya etilsin.

**3.** O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining ushbu qarori “Xalq so‘zi” gazetasi, “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi va Konstitutsiyaviy sudning rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

**4.** Mazkur qaror qat’iy, uning ustidan shikoyat qilinishi mumkin emas va u rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi**

Toshkent sh.,
2025-yil 31-yanvar,
KSQ–2-son

# YANGICHA YONDASHUV VA ILG‘OR TAJRIBALAR MASKANI

*Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi mamlakatimiz huquqni muhofaza qiluvchi organlarini malakali kadrlar bilan ta’minlab kelayotgan, zamonaviy infratuzilma va salohiyatga ega ta’lim muassasasi sifatida e’tirof etiladi.*

**Press-tur**

Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan 1994-yil 2-sentabrda ochilgan mazkur Akademiyada 1994 – 2024-yillar davomida ichki ishlar organlari uchun 20 mingga yaqin malakali yosh ofitserlar, 1000 nafardan ortiq rahbar kadrlar va 12 mingga yaqin serjantlar tayyorlangani ham yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi.



IIV Akademiyasida ommaviy axborot vositalari xodimlari uchun uyushtirilgan press-tur avvalida Akademiya boshlig‘ining o‘rinbosari Sherzod Tojimetov ta’lim muassasasining maqsadi va faoliyati haqida ma’lumot berdi. Keyingi yillarda o‘quv jarayoniga tatbiq qilingan ilg‘or yondashuvlar, ijobiy natijalar taqdimoti o‘tkazildi.

Shundan so‘ng press-tur ishtirokchilari axborot-resurs markazi, o‘quv va amaliy mashg‘ulot xonalari, sport seksiyalari, turarjoy maskanlarida bo‘lib, kursant va tinglovchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. Muloqot jarayonida professor-o‘qituvchilar va ta’lim oluvchilardan o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldi.

Nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan mexanizmlar, o‘quv tergov-tezkor guruhlari faoliyati, zamonaviy kriminalistik laboratoriyalar, xorij tajribasini o‘rganish va yoshlarni yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yo‘naltirilgan tadbirlar haqida so‘z yuritildi.

Akademiya kunduzgi ta’lim bakalavriatida 8 yo‘nalishda – tezkor-qidiruv, huquqbuzarliklar profilaktikasi, ekspert-kriminalistika, jazoni ijro etish, xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash, tashkiliy-shtab, probatsiya faoliyatlari hamda axborot xavfsizligi mutaxassisliklari bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlanmoqda.

– Joriy yildan boshlab Akademiyada kiberxavfsizlik sohasida ilg‘or kadrlar tayyorlash bo‘yicha yangi mutaxassislik yo‘nalishi uchun qabul ochildi, – deydi IIV Akademiyasi axborot xizmati rahbari Dilmurod Jo‘rayev. – Bundan tashqari, ilg‘or xorijiy tajriba va innovatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish orqali ta’lim sifatini oshirish maqsadida Akademiya qoshida yetakchi xorijiy oliy ta’lim tashkilotlarining yuqori malakali mutaxassislaridan iborat o‘quv-metodik kengash faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Ta’lim samaradorligini oshirish, kursantlarning zamonaviy bilimlarni puxta egallashga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytirish, yetuk bilim va salohiyatli yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida Ichki ishlar vaziri stipendiyasi, Jaloliddin Manguberdi nomidagi stipendiya, Cho‘lpon nomidagi stipendiya, “Iqtidorli kursant” hamda “Akademiya a’lochisi” ko‘krak nishonlari ta’sis etilgan.

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida tashkil qilingan press-tur ommaviy axborot vositalari vakillarida katta taassurot qoldirdi.

**Munira RAHIMOVA,**
**O‘zDJTU talabasi.**

## YANGILIKLAR xabarlar TAFSILOTLAR

### Kitob o‘qiganga yana bir rag‘bat

*Andijon tumani hokimligi tomonidan aholini kitobxonlikka keng jalb etish maqsadida tanlov e’lon qilindi. Uning shartiga ko‘ra, asosan, yosh oilalar o‘z xohishi bilan “Kitobxon oila” dasturiga a’zo bo‘lishi va uch oy davomida saralangan 5 ta kitobni o‘qib, boshqalarga ham targ‘ib qilishi kerak.*

Tanlov g‘oliblari faqat munosib rag‘batlantirilib qolmay, balki shu davr ichidagi ularning kommunal to‘lovlari ham to‘lab beriladi.

– Masalaning moddiy tomoniga qiziqib dasturga a’zo bo‘lishni istovchilar ko‘payishi tabiiy hol, – deydi xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashi deputati Matlubaxon G‘aniyeva. – Maqsad aholini kitobxonlikka, ma’naviyatga, ma’rifatga jalb etishdan iborat. Shu bois oila a’zolarining o‘qigan kitoblari haqidagi fikr-mulohazalari o‘rganib boriladi.

Mazkur loyiha ko‘pchilikda qiziqish uyg‘otmoqda. So‘nggi uch kun ichida tanlovda ishtirok etmoqchi bo‘lganlar soni 4 ming nafardan oshgani bunga yaqqol misoldir.

**Saminjon HUSANOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

### “Tashabbusli byudjet” – muammolarga yechim

*Rishton tumanidagi “Bog‘iston” mahalla fuqarolar yig‘ini ahli o‘zaro uyushqoqlik ko‘rsatib so‘nggi yillarda “Tashabbusli byudjet” loyihasida 4 marotaba g‘olib bo‘ldi. Buning natijasida hududdagi maktab va oilaviy poliklinika mukammal ta’mirdan chiqarildi. Ijtimoiy soha muassasalariga quyosh panellari o‘rnatildi. Ichki ko‘chalar asfalt qilindi va elektr tarmoqlari yangilandi. Yaqin kunlarda zamonaviy stadion foydalanishga topshiriladi.*

Mahalla markazida chevarxona, sartaroshxona tashkil etildi. Shu kunlarda esa bog‘istonliklar tashabbusi bilan fuqarolar yig‘ini binosida mo‘jazgina kutubxona ish boshladi. Hozirda kutubxona fondini yanada boyitish maqsadida mahalladagi 680 ta oila kamida bittadan kitob tuhfa qilishi bo‘yicha aksiya o‘tkazilmoqda.

– Qariyb 2,5 ming nafar aholi istiqomat qiluvchi mahallamiz o‘zining gilosi, qantak o‘rigi va limoni bilan yurtimizda dong‘i ketgan, – deydi “Bog‘iston” MFY raisi Abdusalom Yo‘ldoshev. – Mahallamiz ahlining 800 nafarga yaqini yoshlardan iborat. Shu bois barkamol avlod vakillariga zamonaviy sharoitlar yaratib berishni ustuvor vazifa sifatida belgilab olganmiz.

**Botir MADIYOROV**
**(“Xalq so‘zi”).**

### Mazmun va mundarijaga boy festival

*Navbatdagi yirik tadbir – I xalqaro Namangan avtofestivali shu yilning 22-fevralida tashkil etiladi. Viloyat hokimligining ushbu tashabbusi orqali yosh texnik va avtohavaskorlarni qo‘llab-quvvatlash, avtomobil tyuningi sanoatini rivojlantirish, ixlosmandlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish hamda avtoturizm sohasiga yangidan-yangi loyihalarni olib kirish maqsad qilingan.*

Tashkilotchilar festivalni betakror mazmun va mundarijaga boy holda o‘tkazish dasturini ishlab chiqdi. Unga ko‘ra anjuman avvalida retro avtomobillar ko‘rgazmasi uyushtirilib, tarixiy mashinalar jozibasi namoyish qilinadi. “Tyuning” avtomobillari musobaqasida esa ishtirokchilar eng kreativ va shiddatli avtomobillar bilan yaqindan tanishadi. Avtohunarmandlar musobaqasi eng mohir ustalarning chinakam bellashuviga aylanadi.

Anjuman doirasida shahar bo‘ylab avtoparad, avtoauksion va ehtiyot qismlar yarmarkasi, karting musobaqalari hamda qimmatbaho sport avtomobillari namoyishi ko‘zda tutilgan. Xalqaro festivalning asosiy tadbirlarini Davlatobod tumanidagi “Afsonalar vodiysi” tematik parkida o‘tkazish rejalashtirilgan.

**Qudratilla NAJMIDDINOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

**2025-yilning 1-yanvar holatiga, chet el investitsiyasi ishtirokida 14 871 ta korxona faoliyat ko‘rsatmoqda.**

# MAHALLANING «ANZIRAT BUVILARI»

*Sirdaryo viloyatining barcha tuman, shahar mahallalarida "Oqila ayollar" harakati faoliyati yo‘lga qo‘yilib, bugungi kunda harakat a'zolari samarali ish olib bormoqda.*

## Yashayotgan qadriyatlar

– "Oqila ayollar" harakati a'zolarini qirq yildan buyon ekranlardan tushmay kelayotgan "Suyunchi" filmining bosh qahramoni Anzirat buviga o‘xshataman, – deydi Guliston shahar hokimi o‘rinbosari Aziza Payziyeva. – Anzirat buvini bejiz mahallaning vijdoni deyishmagan. U borligi tufayli qishloqqa o‘g‘ri tushmaydi. Oilaviy ajrimlar bo‘lmaydi. Oradan mehr-oqibat ko‘tarilmaydi. Keksayu yosh uning o‘gitlariga quloq tutadi. Bizning oqila ayollarimiz ham aynan Anzirat buvining izdoshlari desam, adashmagan bo‘laman.

Shahrimizdagi 24 ta mahallaning barchasida "Oqila ayollar" harakati rahbari bor. Ular o‘z atrofiga 15 nafardan piru badavlat, ma'naviyatli, bilimli, namunali oila bekalari, ibratli qaynonalarni jamlagan. Ayniqsa, "Ibratli", "Baxt", "Shodlik", "Do‘stlik", "Bog‘i shamol" mahalla fuqarolari yig‘inlaridagi "Oqila ayollar" harakati a'zolarining faoliyati tahsinga loyiq. Jumladan, Ibratli mahallasidagi "Oqila ayollar" harakati rahbari Mamlakat Bekmanovani vohamizdagi ayollar yaxshi taniydi. U yetakchiligidagi oqila ayollar, buvijonlar oilaviy ajrimlarni hal qilish, qaynona-kelin munosabatlarini yaxshilashga hissa qo‘shishdan tashqari hududdagi maktab va turli boshqa jamoalar huzuriga tez-tez borib, yoshlarga ma'naviyat bo‘yicha saboq beradi. Shuningdek, kitobxonlikni targ‘ib etish, yangi kitoblar taqdimotini o‘tkazish, maktab kutubxonasini yangi kitoblar bilan boyitishga hissa qo‘shish kabi xayrli ishlarga bosh-qosh.

Darhaqiqat, bugungi kun ayoli – bu nafaqat ona, uy bekasi, balki ta'lim olib, kasb egallayotgan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanib, yangi marralarga erishayotgan ijtimoiy faol shaxsdir.

Shu bilan birga, ular turli sohalarda faoliyat yuritib, yangi O‘zbekistonni bunyod etish, hayotimiz farovonligida qatnashayotgan fidoyilardir.

– Mahallamizdagi piru badavlat keksa onaxonlarning barchasi "Oqila ayollar" harakati a'zosi, – deydi "El-yurt hurmati" ordeni sohibasi Norposhsha Farmonova. – Chunki ular qo‘sha-qo‘sha kelinlar tushirib, qizlar uzatib oila muqaddasligini asrash, uni mustahkamlash, o‘zaro ahillik, mehr-oqibat borasida barchaga namuna bo‘lmoqda. Yana bir ibratli tomoni, qishloq kayvonilari qay bir xonadonga kirmasin, ularni izzat-ikrom bilan qarshi oladi, pand-nasihatlariga quloq tutadi. Hech kim "Oilaviy munosabatlarimizga aralashmang, bu sizning ishingiz emas" degan gapni aytmaydi. Chunki qishloq xonadonlarida voyaga yetgan yigit-qizlar ota-onalari, bobo va buvijonlaridan "Bir bolaga yetti mahalla – ota-ona" degan tamoyil asosida tarbiya olgan. Mahallamizning boshqa mahallalarga kelin bo‘lib tushgan qizlari ham shu tartibga rioya qiladi.



Bolalar tarbiyasiga ana shunday katta e'tibor tufayli qishlog‘imizda o‘tgan yillar mobaynida birorta ajrim qayd etilmagan. Mahallamizda yana bir ibratli udum mavjud. Kimning uyida biror to‘y-hasham, ma'raka bo‘lsa, kelinlar qaynonalari boshchiligida ko‘makka keladi. Mahallamiz ahlining chorvachilik va dehqonchilikdan tashqari yana bir ajoyib yumushi borki, u tufayli dovrug‘i elga doston. Aholi azaldan qovunqoqi tayyorlash bilan shug‘ullanadi. Hamma xonadonlarda qaynonalar boshchiligida kelinlar shu ish bilan mashg‘ul bo‘ladi. Yana bir narsa bilan maqtansak arziydi, bizning mahalladan bir nafar ham ayol ish izlab, xorijga ketmagan. Mahallamizdagi bunday havas qilarlik ijtimoiy-ma'naviy muhitning mustahkam qaror topishida, albatta, "Oqila ayollar" harakatining salmoqli hissasi bor.

Chindan-da, bugun mahalla tizimidagi ana shunday ibratli ishlar va ularda xotin-qizlarning bevosita ishtiroki haqida so‘z yuritiladigan bo‘lsa, "Oqila ayollar" harakati tilga olinadi. Chunki tuzilma o‘z nomiga yarasha, doimo harakatda, izlanishda.

Bugungi kunda Sirdaryo viloyatidagi "Oqila ayollar" harakatining 4 ming nafarga yaqin a'zolari oila va xotin-qizlar tizimining chin ma'nodagi ko‘makchisiga, voha ayollarining dildoshu sirdoshiga aylangan. O‘tgan yilda harakat a'zolari tomonidan milliy qadriyatlar, ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog‘lomlashtirish, farzand tarbiyasi, yoshlarni Vatanga sadoqatli qilib tarbiyalash, qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oila muqaddasligi tushunchasini, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish borasida ko‘plab yumushlar bajarildi. Ularning samarasi bugungi ijtimoiy, ma'naviy hayotda, mahalla tizimida, oilada o‘z ifodasini topmoqda. Eng muhimi, harakat a'zolari mahallalardagi har bir xonadonga kirib, oilalarning quvonchu tashvishlariga sherik bo‘lmoqda. Nizoli holatlarni bartaraf qilishga, turli muammolarni hal etish, jumladan, oilaviy ajrimlar sonini kamaytirishda faol qatnashmoqda.

**Xolida PARDABOYEVA,**
**O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist.**

---

### Muborak sarchashmalar

# MUNOJOT TOG‘INING SO‘NMAS QUYOSHI

*O‘tmishda tasavvuf tarixiga bag‘ishlab yozilgan barcha tazkiralarda "ikki jahon quyoshi" – Suhayl ibn Omir Uvays Qaraniy chuqur ehtirom bilan tilga olinadi. Uni "Yaman yulduzi" deb ham atashgan. Rivoyatlarga ko‘ra uning otasi Omir yamanlik bo‘lib, Murod qabilasining qarn urug‘iga mansub. Qoraqalpog‘iston, Namangan viloyati, Tojikistonda va hatto Turkiyada ham uning nomiga barpo etilgan qadamjolar uchraydi.*

Ayrim manbalarda hazrati Umar bilan hazrati Alining xirqai sharifni topshirish uchun Uvays bilan uchrashuvi hozirgi Qoraqalpog‘iston hududidagi Sulton Uvays tog‘ida bo‘lgani, undagi baland qoyani Sulton Uvays Allohga munojot etgan joy sifatida "Munojot tog‘i" deb ixlos qilinishi keltiriladi. Hazrat Navoiy "Nasoimul-muhabbat" asarida Uvays Qaraniy Uhud jangida Payg‘ambarimiz (s.a.v)ning bitta tishlari singanini eshitib, o‘zlarining hamma tishini urib sindirganini yozadi. Bu yerga ziyoratga kelganlar Munojot tog‘idagi qizil dog‘larni Uvays bobo tishidan qolgan qon, deya e'tiqod qiladi.

– Qoraqalpog‘iston Respublikasining Beruniy tumanidagi ziyoratgoh ham, u joylashgan tog‘ ham Sulton Uvays nomi bilan ataladi, – deydi Sulton Uvays bobo masjidi imom-xatibi Nuriddin Yusupov. – Ma'lumotlarga qaraganda, bu yerda Sulton Uvays maqbarasi ilk bora XIII asrda Sulton Muhammad Xorazmshoh buyrug‘iga binoan qurilgan. Ammo Chingizxon qo‘shinlari tomonidan vayron qilingan. Oradan asrlar o‘tib Xiva xoni Eltuzarxon, keyinchalik Olloqulixon tarafidan maqbara qayta tiklanadi. Biroq sobiq tuzum davrida maqbaraning oltindan yasalgan qandili, oltin suvi yuritilgan panjarasi, gumbaz ustidagi oltin qubbasi talon-toroj qilinib, vayronaga aylantirildi. Nihoyat, mustaqillik sharofati bilan qayta ta'mirlanib obod qilindi.

Maqbaraning sharqiy tomonida bir chashma bor. Bu chashma xalq ichida "Shifobuloq" nomi bilan mashhur. Buloq suvi har qanday iqlim sharoitida o‘z muvozanatini yo‘qotmaydi. Hozirgi kunda ham bu tabarruk joyda Sulton bobomizdan ba'zi osoriatiqalar qolgan. Ziyoratgoh qadimiy arxitektura uslubida qurilgan. Sulton Uvays Qaraniy sag‘anasi gumbaz shaklida. Sag‘ana atrofi hujralar bilan o‘ralgan. Ziyoratgohning g‘arbiy qismida Chinor bobo maqbarasi bor. Maqbara gumbazsimon shakldagi imorat bilan o‘ralgan.

Prezidentimizning 2021-yil 9-fevraldagi "O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmoni ijrosi yuzasidan "Sulton Uvays bobo" ziyoratgohida ziyoratchilar uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish bo‘yicha "Yo‘l xaritasi" ishlab chiqildi. Shunga ko‘ra 2022-yilda ziyoratgohga kirish darvozasi koshin bilan bezatildi. Maqbaraga olib boruvchi 3600 metr yo‘l yangidan asfalt qilindi. Ziyoratchilarga qulay shart-sharoit yaratish maqsadida tahoratxonalar va masjid qurildi.

Aytish joizki, ziyoratchilarning barchasi, ayniqsa, yoshlar ziyorat odobini bilmasligi mumkin. Yuqoridagi Farmon asosida ishlab chiqilgan reja asosida ziyorat odobi va tartibi aks ettirilgan ma'lumotlar joylashtirib kelinayotir. Shuningdek, asosiy yo‘llarda va yirik aholi punktlarida ziyoratgohga olib keluvchi yo‘nalishni ko‘rsatuvchi yo‘lko‘rsatkich va axborot belgilarini o‘rnatish ishlari ham olib borilmoqda.

Ma'lumot o‘rnida: 2019-yilda ziyoratgohga 100 mingdan ortiq ziyoratchilar tashrif buyurgan bo‘lsa, 2020-2021-yillarda karantin talablari joriy etilgach kamaygan. O‘tgan yilda 247 ming mahalliy va 400 dan ziyod xorijiy sayyohlar ushbu ziyoratgohga tashrif buyurgan. "Sulton Uvays bobo" qadamjosida ziyorat mavsumi bahor, yoz va kuz fasllari hisoblanadi.

**G‘ayrat OTAJONOV**
**("Xalq so‘zi").**

---

# ZOMIN ARCHAZORLARI – TABIAT GULTOJI



*Zomin deganda, ko‘z o‘ngimizda viqorli tog‘lar, ko‘m-ko‘k yastanib yotgan adirlar, iqlim sharoiti va sof havosi bilan e'tiborni tortadigan sehrli o‘lka keladi. "Zomin" atamasi faqat zominliklar uchun emas, hamma uchun qadrli. Ulug‘ shoir Hamid Olimjon mazkur misralarni yozganda naqadar haq edi:*

***O‘xshashi yo‘q bu go‘zal bo‘ston,***
***Dostonlarda bitgan guliston.***
***O‘zbekiston deya atalur,***
***Uni sevib el tilga olur...***

## Bir o‘lkaki...

Zomin tog‘larini makon tutgan yuz yillik archalar Jizzax viloyatining ko‘rku saxovatidan nishona. Mutaxassislarning aytishicha, bir tup archa tomirlari atrofida 2 tonnagacha suv to‘planar ekan. Qolaversa, bu daraxt sutkasida bir qishloqqa yetgulik kislorod ishlab chiqaradi. Dengiz sathidan 2400 metr balandlikda joylashgan 27 ming gektarlik archazorlar hudud havosini kislorod bilan muttasil to‘yintiradi. Archalardan ajraladigan efir bronxial astma, tomoq og‘rig‘i hamda qator allergik kasalliklarga davo hisoblanadi. Shundan shaharning shovqinli, biroz xiralashgan havosidan yoki umuman, dunyo tashvishlaridan xoli bo‘lish niyatida yurtdoshlarimiz Zominga keladi. Zomin tog‘lari etagida ko‘plab sanatoriylar, yozgi bolalar oromgohlari, mehmonxonalar, dam olish maskanlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ya'ni xizmat ko‘rsatish sohasida yaxshigina raqobat yuzaga kelgan. Tabiiyki, hududda huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Yaqin yillarda atrof-muhitni muhofaza etish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlarni bevosita tartibga soluvchi o‘n beshdan ziyod qonun loyihalari qabul qilindi.

Bu yerda 500-yildan 2,5 ming yoshgacha bo‘lgan noyob tabiiy archazorlarni va archazorlardagi hayvonot hamda o‘simlik dunyosini asrash maqsadida 1928-yil Turkiston tog‘ tizmasida "Zomin tog‘ archazorlari" davlat qo‘riqxonasi tashkil etilgan. Oradan 68 yil o‘tib, 1994-yil 7-oktabrdagi "Zomin davlat qo‘riqxonasining hududiy kengaytirish va uni qo‘riqlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan qo‘riqxona hududining aniq chegaralari belgilandi.

– Qo‘riqxona hududida faqatgina kuzatuv va ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga ruxsat etiladi, – deydi "Zomin davlat qo‘riqxonasi" direktorining ilmiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari Quvonchbek Tratov. – Bu yerda boshqa, aytaylik, yilning har qanday faslida ham qushlar, sudralib yuruvchi, sut emizuvchi, yovvoyi hayvonlarni va umuman, qo‘riqxonada yashayotgan har qanday jonzotlarni ov qilish, turli-tuman giyoh va o‘simliklarni yig‘ish-terish, daraxt, ayniqsa, archalarni kesish, hatto turli ko‘chat va ekinlarni ekish ham, tadbirkorlik faoliyatini olib borish ham mutlaqo taqiqlanadi. Hozirgi paytda qo‘riqxona hududida baliqning bitta turi, ya'ni qora baliq, amfibiyalarning 2 turi, sudralib yuruvchilarning 14, qushlarning 102, sut emizuvchilarning 30 turi mavjud.

O‘zbekiston va xalqaro "Qizil kitob"ga kiritilgan qor qoploni, Tyan-Shan qo‘ng‘ir ayig‘i, Turkiston silovsini, ilvirs, Seversov qo‘yi (olqor), Sibir tog‘ echkisi, qora grif, qora laylak, soqolli kalxat, burgut, pakana burgut, oqboshli kalxat, lochin va qizilboshli lochin kabi hayvon hamda qushlar qo‘riqxona hududida bemalol yashamoqda. Ulardan tashqari bo‘ri, tulki, yovvoyi to‘ng‘iz, tasqara, jayra, quyon kabi hayvonlar, ko‘plab chumchuqsimon qushlar ham davlat muhofazasiga olingan. Qo‘riqxona nazoratchilari tomonidan bir yilda ikki marta – kuzgi va bahorgi hisobot ishlari olib boriladi.

Qish erta keladigan tog‘li hududlarda yashovchi hayvonlar gohida ozuqa topolmay nobud bo‘ladi. Ularni asrab qolish uchun qo‘riqxona xodimlari aksariyat hollarda o‘txo‘r jonivorlar uchun yem-xashak, parrandalarga don qo‘yib ketadi. Yil davomida hayvonlarning yashash tarzi, oziqlanishi, ko‘payishi bo‘yicha ilmiy-amaliy ishlar olib boriladi. Shu bois ular yuradigan so‘qmoqlar, archazorlarga fotoqopqonlar o‘rnatilgan. Kechayu kunduz ularning harakatlari kuzatiladi.

O‘tgan yilning dekabrida fotoqopqonga tog‘ suvsari "tushdi". Vaholanki, Zomin qo‘riqxonasida suvsar borligini hech kim bilmasdi. Hududda hayvonlarning yangi turi borligi aniqlandi. Xizmatchilarning vazifalari yanada ko‘paydi. Qo‘riqxonada milliy boyliklarimiz muhofazaga olingan. Ularni asrab kelajak avlodga yetkazish, ekologik muammolarni bartaraf etishga hissa qo‘shishga barchamiz burchlimiz.

**Rustam NURMATOV**
**("Xalq so‘zi").**

---



# SPORT xabarlari

## Yetakchilarga sport jihozlari topshirildi

*Nurafshon shahrida joriy yilda "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida o‘tkaziladigan sport musobaqalari oldidan Toshkent viloyatidagi barcha mahalla yoshlari yetakchilariga sport anjomlaridan iborat "Prezident sovg‘alari" topshirildi.*



Shu munosabat bilan "Nurafshon arena" o‘yingohida uyushtirilgan tantanali tadbirda soha mutasaddilari qatnashib, musobaqalarning bu yilgi mavsumida ham haqiqiy iqtidor egalari mahallada kashf etilishiga ishonch bildirdi.

Sport vazirligi tomonidan yetkazilgan 2052 dona futbol, 2052 dona voleybol, 2052 dona basketbol hamda 1026 ta gandbol to‘pidan iborat sport anjomlari 1025 ta mahalladagi yoshlar yetakchilariga taqdim etildi.

## Kikbokschilarimiz kuchlilar safida

*Shu yilning 1 – 5-fevral kunlari Hindistonning Dehli shahrida kikboksing bo‘yicha "WAKO India Open International Tournament" musobaqasi bo‘lib o‘tdi.*

Hamyurtlarimiz mazkur xalqaro musobaqada munosib ishtirok etdi. Jumladan, jami 30 ta medal (21 ta oltin, 7 ta kumush, 2 ta bronza) bilan sportchilarimiz umumjamoa hisobida 2-o‘rinni qo‘lga kiritdi.



## Badmintonchi talabalar bahsi

*Hozirgi kunda yurtimizning barcha hududida oliy ta'lim muassasalari talabalari o‘rtasida "Universiada – 2025" sport musobaqalari qizg‘in pallaga kirib bormoqda.*



O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida ushbu sport musobaqalarining badminton turi bo‘yicha respublika final bosqichi boshlandi.

Uning ochilish marosimida so‘zga chiqqanlar ushbu bellashuvlar nafaqat talaba-yoshlarni sportga keng jalb etish, balki ular o‘rtasida do‘stlik munosabatlarini o‘rnatish va jamoa bo‘lib harakatlanishga xizmat qilayotganini alohida urg‘ulashdi.

Aytish joizki, bu bosqichda barcha hududdan 120 ga yaqin talabalar yakkalik, juftlik hamda aralash dasturlarda g‘oliblik uchun bahs olib bormoqda.

## Sog‘lom hayot uchun 5000 qadam

*Qashqadaryo viloyatining Qarshi shahri hamda G‘uzor tumanida "Yoshlar sog‘lom hayotni tanlaydi!" shiori ostida "Sog‘lom hayot uchun 5000 qadam" ommaviy yurish tadbiri hamda "Biz giyohvandlikka qarshimiz" chellenji tashkil etildi.*



Aholi o‘rtasida sportni ommalashtirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish maqsadida o‘tkazilgan mazkur tadbirda 1,5 mingga yaqin turli yosh toifasidagi aholi vakillari, nuroniylar hamda yoshlar ishtirok etdi.

**"Xalq so‘zi".**

---

**Misr kompaniyasi O‘zbekistonda farmatsevtika sohasidagi qo‘shma loyihani amalga oshiradi.**

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-242. 15 329 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Soyibnazarov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O‘zA yakuni — 21.00 Topshirildi — 23.40 1 2 3 4 5 6